



## BO'LAJAK OFITSERLARNING FAOLIYATLARIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLARNI HAL QILISHDA VATANPARVARLIK RUHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jamoat xavfsizligi universiteti

4-bosqich kursanti

**Zohirov Nodirbek Ulug'bekovich**

**Annotatsiya:** maqolada bo'lajak ofitserlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zaruriyati, ular dunyoqarashining shakllanishi va o'ziga xosligi haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** vatan, harbiy vatanparvarlik, tarbiya, vatanga sadoqat, fidoiylik, burch, mas'uliyat.

Ma'lumki, yangi jamiyatni qurish jarayonida uning barcha tashkil qiluvchi tomonlarini birdek o'rganib, yagona maqsad sari harakat qilishimiz mamlakatimizga nisbatan yuksak e'tirofimizni namoyon qiladi.

“Vatan” so‘zi aslida , arabchadan olingan bo‘lib, ona-yurt to‘g‘ilgan makon ma‘nolarini bildiradi. “Vatan” tushunchasi keng va tor manoda qo‘llaniladi. Tor ma‘noda – kishi to‘g‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilgan bo‘lsa, bir xalq vakillari jamuljam yashayotgan, ularning ajdodlari azal azaldan istiqomat qilgan hudud ifodalanganida esa - keng ma‘noga ega bo‘ladi. Vatanparvarlik - kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma‘naviy qadriyatlardan biri.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, «Armiyamiz unib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va ona yurtga muhabbat, milliy qadriyat va an‘analarimizga hurmat, shonli tariximizni chuqur bilish ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarga faol kirishganini alohida qayt etish lozim».

Dunyoda har qaysi millatning o‘z afsonaviy qaxramonlari o‘zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari bo‘ladi. Xalqimiz azal-azaldan o‘z vujudi, o‘z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo‘lmoqqa intilib, o‘z o‘g‘lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan.



Tarixdan yaxshi ma'lumki, yer yuzida qaysi mamlakat o'z davlat mustaqilligi, chegaralari daxlsizligi, xalqining tinch va osoyishta hayotini himoya qilib, taraqqiyot borasidagi yuksak maqsad va muddaolariga erishmoqchi bo'lsa, avvalo, milliy armiyasini mustahkamlashga, uning hal qiluvchi kuchi bo'lgan jangovar tarkib, ya'ni, askar va ofitserlar tarbiyasiga birinchi darajali ahamiyat beradi. Agar jismoniy va jangovar tayyorgarlik orqali harbiy xizmatchilar jismonan toblanib, kuch-quvvatga to'lsa, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya orqali ularning qalbi, ruhi va irodasi mustahkamlanadi. Biz qahramon otobobolarimiz, jasur harbiylarimiz haqida so'z yuritganda, "mard", "botir", "matonatli", "qo'rqmas", "sheryurak", "pahlavon" degan so'zlarni alohida tilga olamiz. Har bir insonda ana shunday oliyjanob fazilatlarni shakllantirib, yosh yigitlarimizni Vatan uchun qalqon, haqiqiy mardu-maydon bo'lishga kerak bo'lganda hatto o'z jonini qurbon qilishga undaydigan kuch bu - avvalo ma'naviy-ma'rifiy tarbiyadir.

Shonli tariximizda Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muxammad Bobur singari buyuk sarkardalarimizning oz sonli qo'shin bilan dushmanning katta lashkari ustidan g'alaba qozongani haqida misollar ko'p. Bu albatta ularning harbiy salohiyati jang maydonida qo'llagan taktika va strategiyalari, qolaversa sarkardalarning o'z askarlari qalbiga chinakkam vatanparvarlikni, jangovor ruhni singdira olgani biz uchun bugun ibratlidir.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Men istardimiki, har bir o'zbek askari va ofitseri qalbida Alpomish, Shiroq, Farhod, Jaloliddin Mangubendi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari milliy qahramonlarimiz ruhi tug'yon urishi kerak" degan so'zlari bejizga aytilmagan.

Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizning mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, komil inson qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.



Bo'lajak ofitserlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitusion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining bosh vazifasi mustaqil, o'z yo'lidan rivojlanayotgan Vatanimiz uchun, g'urur, Qurolli Kuchlarga nisbatan muhabbat, jangovar va mehnat urf – odatlarimizga sadoqat, harbiy mehnatga hurmat hissini har taraflama rivojlantirish, ozodlik va mustaqilligimizni, qo'limizdagi qurol bilan muhofaza qilishga doimiy tayyorlikni shakllantirish, o'z fuqarolik burchini ado etishdir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda harbiy xizmatga qiziqishni rivojlantirish, harbiy kasblarni egallash, yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmatga tayyorlashga yordam berishni ko'zda tutadi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi Vatanni himoya qilish uchun tayyorlikni ta'minlaydigan fikr, ishonchini, dunyo qarashni shakllantirish, unga bor kuchni, kerak bo'lsa hayotini ham berish. Bo'lajak jangchilarning ma'naviy – ruhiy, axloqiy – intizomiy, jangovar xislatlarini tarbiyalashdan iborat.

Respublikamizda harbiy tayyorgarlikka har doim katta e'tibor berilgan, 1918 yildan boshlab mamlakatda harbiy o'rta o'quv yurti, ya'ni hozirgi Toshkent Oliy Umumqo'shin Qo'mondonlik bilim yurti faoliyat ko'rsatmoqda, u minglab yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorladi, 50 ga yaqin bitiruvchilari qahramonlik unvoniga loyiq bo'ldi.

Aholini harbiy o'qitishga "Armiya, aviatsiya va flotga yordam ko'rsatishning ko'ngilli jamiyati" (DOSAAF), hozirda "Vatanparvar" mudofaaga ko'maklashuvchi tashkilot (MKT) katta va behisob hissa qo'shdi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi o'z mohiyatiga ko'ra vatanparvarlik tarbiyasiga asoslanadi va uning davomi hisoblanadi. Bunda vatanparvarlik tarbiyasining sifati va samaradorligi qanday darajada ekanligi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2014 yil 3 iyun.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrda 348-son qarori bilan tasdiqlangan “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevralda 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi.

